

# O‘SMIR QIZLARNING DELINKVENT XULQ-ATVOR MOTIVATSIYASI VA OTA- ONALAR MUNOSABATI BILAN BOG‘LIQLIGI

Mo‘minova Dilrabo Murodillayevna, doktorant  
Namangan davlat universiteti

[dilrabomuminova2018@gmail.com](mailto:dilrabomuminova2018@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada o‘smir qizlarning delinkvent xulq-atvor motivatsiyasi, huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi omillar, delinkvent xulq haqidagi nazariyalar taxlili, qizlardagi delinkvent xulq omillari ota- ona va tengdoshlar munosabatlari bilan bog‘liq ekanligi haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** delinkvent, emotsiya, ehtiyoj, hissiyot, motivatsiya, tasavvur, qiziqish, zo‘ravonlik.

**Аннотация:** В статье мотивация делинквентного поведения девочек-подростков, факторы, вызывающие делинквентность, анализ теорий о делинквентном поведении, факторы делинквентного поведения девочек связаны с отношениями между родителями и сверстниками.

**Ключевые слова:** правонарушитель, эмоция, потребность, чувство, мотивация, воображение, интерес, насилие.

**Abstract:** In the article, the motivation of teenage girls' delinquent behavior, the factors causing delinquency, the analysis of theories about delinquent behavior, the factors of delinquent behavior in girls are related to the relationship between parents and peers.

**Key words:** delinquent, emotion, need, feeling, motivation, imagination, interest, violence.

Bugungi kunda, ota-ona munosabatlari, tengdoshlarning o‘ziga xos ta‘sir doirasiga e‘tibor qaratish orqali, qizlarning delinkvent xulq-atvori bilan bog‘liq xavf omillari haqidagi qarashlarimiz, ota-onalar va tengdoshlar o‘rtasidagi munosabatlarning sifatlari (masalan, tushinish va qo‘llab-quvvatlash) kabi ota-onalik amaliyoti tuzilmalari huquqbuzarlik xavfi bilan bog‘langan. amonaviy tadqiqotlar o‘smir qizlarda oila va tengdoshlari ta‘siri delinkvent xulq paydo bo‘lishiga qanday zamin yaratishi mumkinligiga e‘tibor qaratdi [1].

Shaxs shakllanishida oilaviy tarbiyaning sustligi va ota-onalar nazoratining yetishmasligi, o‘smir qizlarning tengdoshlar tomonidan huquqbuzarliklarga ta‘sir qilishi mumkinligi haqida ba‘zi dalillar mavjud, garchi bu ta‘sirlar kamdan-kam hollarda jins tomonidan tekshirilganligini aytishimiz mumkin. Umuman olganda, o‘smir qizlar, ota-onalar va tengdoshlar munosabatlarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash uchun ko‘proq tadqiqotlar talab etiladi.

Zamonaviy kriminologiyada o‘smirlar va yoshlar jinoyatchiligiga sabab bo‘luvchi ikki yuzga yaqin omillar aniqlangan, “Har qanday jinoyatning ildizini ko‘proq inson tarbiyalanayotgan muhitdan izlash kerak”- deydi taniqli rus adibi

F.Dostoevskiy. Darhaqiqat, bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ota-ona bolaning o'rtoqlari, tengdoshlari kim, u qayerga boryapti, nima ish bilan shug'ullanyapti hammasini surishtirib nazorat qilib turishi kerak [2].

Mutaxassislar tomonidan o'smirlar jinoyatining asosiy sabablari quyidagicha ko'rsatib o'tilgan:

1. Yashash, o'qish yoki ish joyidagi muhitning salbiy ta'siri.
2. O'qishni tashlab ketgan o'smirlar yoki o'spirinlar.
3. Bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik.
4. O'smirlarning noto'g'ri tarbiyalashga olib keluvchi shart-sharoitlar.
5. Yoshi katta jinoyatchilarning salbiy ta'siri.
6. Zo'ravonlik va noqonuniy harakatlarni ifodalovchi adabiyotlar va kinofilmlar ta'siri.
7. Bolalar xulq-atvorini nazoratsiz qoldirish.
8. Madaniy hordiq chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklar.

O'smirlar jinoyatining sodir etilishiga ko'ra turlari quyidagicha farqlanadi:

- Jinoyatni oldindan puxta o'ylab sodir etilgan jinoyatlar;
- O'ylamasdan, kutilmaganda yuzaga kelgan va fikrlar ta'sirida sodir etilgan jinoyatlar;
- G'arazli niyat bilan;
- Ba'zan kutilmaganda;
- Ba'zan oldindan o'ylab qo'yilgan reja bilan sodir etilishi mumkin [3].

Jinoyat sodir etishga undovchi motivlar haqida so'z ketganda uni tasodifiy holatlarining yig'indisi deb qarash to'g'ri emas.

Ko'p hollarda o'smir shunday sharoitlarni o'ziga qidirib topadi. Olimlarning fikricha, jinoiy harakatlar ikki turdagi turtki motivlar tufayli sodir bo'lishi mumkin. Ular kishining ehtiyoj va his-tuyg'ularidadir.

Ye.I.Kulchiskayaning fikricha, o'smirlar huquqbuzarligining psixologik motivlari tarkibida emotsiyalar-33,4% dunyoqarash va tasavvurlari -23,4%, ehtiyojlar - 26,4% , qiziqishlar - 17% ni tashkil etadi [4].

Bundan ko'rinib turibdiki jinoyatga undovchi motivlar orasida emotsiyalar "hissiyot" yetakchi o'rinlarini egallaydi. Shaxs jinoyat sodir etayotganida uning ichki psixofiziologik holatlari muhim rol o'ynaydi. Unda ichki va tashqi tormozlanish mavjud. Jinoyat sodir etilayotganda bizdagi emotsiyalar qo'zg'alish holatiga keladi. Ya'ni butun his-tuyg'ularimiz ongsizlik holatiga o'tib ketadi. Jinoyatning kelib chiqishida bir nachta sabablar motivlar paydo bo'ladi. Inson qanchalik tarbiyalangan bo'lsa emotsiyalarini boshqara oladi. Lekin ayrim hollarda chegaradan chiqib ketish, ya'ni ongsizlik holatiga o'tib ketish paytlari ham bo'ladi. Xalqimizda "Jahl kelsa- aql qochadi" deb bekorga aytilmagan.

Hissiyotlarning 100 dan ortiq turi mavjud bo'lib ulardan 30 tasini bevosita jinoiy harakatlarning sodir etilishida kuzatish mumkin. Sud amaliyotida ham jinoiy xulq motivlari orasida his-tuyg'ular katta o'rinni egallaydi.

Ehtiyojlar ham jinoiy xulq-atvoriga undovchi motiv sifatida namoyon bo'ladi. O'smirlarda ko'proq tabiiy ehtiyojlarni qondirish ustunlik qiladi. O'smirlik davrida o'zga jinsga bo'lgan mayllar paydo bo'ladi. Ba'zan jinsiy ehtiyoj ham o'smirni jinoyat sodir etishga sabab bo'lishi mumkin. Har qanday o'smirning

qarashi va tasavvurlari uning dunyoqarashini tashkil etadi. “Hayotdan lazzatlanib qol”, “Ahmoqlar ishlashni yoqtiradilar” bunday qarashlar o‘smir tasavvurida ustunlik qiladi. Ideallar ham o‘smir hayotida katta o‘rinni egallaydi. Ideal ta‘sirida o‘smirlar jinoyat olamiga kirib qolishadi.

Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o‘rin egallaydi. Shu o‘rinda Ibn Sinoning ham qarashlarini keltirishimiz mumkin. U bola tarbiyasida oila boshlig‘i-otaning roliga alohida e‘tibor beradi. “Agar oilada, deydi u, - oila boshlig‘i tajribasizlik, no‘noqlik qilsa, u oila a‘zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda bundan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin”. Bola tarbiyasi yaxshi yo‘lga qo‘yilsa, oila baxtli bo‘ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi. Ota-ona kim bo‘lishidan qat‘iy nazar bu vazifani ma‘suliyat bilan ado etishi lozim. [9].

Voyaga yetish jarayonida bolaning ota-onasi bilan munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi. O‘smirlik davrida esa ularning asosiy vazifasi o‘smirning o‘ziga xosligini, o‘zini-o‘zi belgilashini anglash, lekin ayni paytda oilani qo‘llab-quvvatlash va qo‘shilishdir [6]. Shu bilan birga, ota-onalarning o‘smir qizlarga bo‘lgan munosabati o‘smirga ham, o‘ziga ham talablarni susaytirmasdan, unga chuqur hurmat bilan uyg‘unlashishi kerak. A.S. Makarenko ta‘kidlaganidek, “ota-onaning o‘ziga bo‘lgan talabi, ota-onaning o‘z oilasiga bo‘lgan hurmati, ularni har bir bosadigan qadami ustidan ota-ona nazorati ta‘limning birinchi va eng muhim usulidir ” [5].

M. Bouenning fikricha, oila hissiy tizimdir, er va xotin , ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, oilaning shakllanishidagi rolini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Oila normal faoliyat ko‘rsatishi bilan o‘smirga tashqi dunyo bilan munosabatda bo‘lganda xavfsizlikka bo‘lgan asosiy ehtiyojni ta‘minlaydi, umidsizlik va bezovtalik paytlarida qulaylik manbai bo‘lib, psixotravmatik vaziyatlarda yuzaga keladigan tashvish hissini kamaytirishga yordam beradi. O‘smirning ushbu ehtiyojlarini qondirmaslik odatiy qaramlik va bog‘lanish munosabatlarining salbiy o‘zgarishiga va natijada deviant xatti-harakatlarga olib keladi.

O‘smirning delinkvent xulq-atvor sabablarini uning shaxsi rivojlanishiga ta‘siri nuqtai nazaridan o‘rganish, oilaning noto‘g‘ri ishlashi, bolaning ota-onaning mehr-muhabbatiga bo‘lgan ehtiyojining qondirilmaganligi, ota-onadan birining yo‘qolishi kabi omillar, ota yoki onaning (o‘lim, ajralish), ota-onaning o‘smirga qo‘yadigan talablarining yetarli emasligi va mos kelmasligi ichki xotirjamlik uchun an‘anaviy hisoblanadi [7].

Shuningdek, o‘smirlarda delinkvent xatti-harakatlarining prognozlarini o‘rganish doirasida E.V.Zmanovskaya oilaning roli bilan bog‘liq va shaxsning sotsializatsiyasini buzadigan omillarni qayd etadi. Eng muhimlari: “ota-onalarning funksiyalarini buzish (tender g‘amxo‘rlik, yaqinlik, qo‘llab-quvvatlash, talablar); oiladagi buzg‘unchi nizolar; oilaviy zo‘ravonlik; ota-onadan birining yo‘qolishi” deb aytadi [8].

**Xulosa:** Yuqoridagi fikrlarga asoslanib quyidagi xulosalarni shakllantirdik.

- delinkvent xulq-atvorga ega o'smir qizlarning axloqiy rivojlanishidagi o'ziga xosligi ijtimoiy munosabatlar bilan bo'g'liq;

- ular ko'proq to'liq bo'lmagan oilalarda, ko'pincha o'z hayotida tarbiyalanadi va qonunga bo'ysunadigan tengdoshlar bilan solishtirganda, otalarning o'limi yoki ajralishi kabi hodisalar sodir bo'lganligini ko'rish mumkin..

- delinkvent xulqli o'smir qizlar oilalarida onalarning tarbiyalash uslublari bir-biriga zid va nomutanosibdir.

- delinkvent xulqli qizlarning onalari o'spiringa o'zlarining nomaqbul xulqni aks ettirishi, haddan tashqari taqiq va talablarni qo'yishi va rag'batlantirishdan ko'ra, jazolashning ortiqligi bilan belgilanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Henneberger, Durkee, Truong, Atkins va Tolan, 2013; Genri, Tolan va Gorman-Smit, 2001
2. Змановская, Е.В. Девиантное поведение личности и группы: Учебное пособие./ Е.В. Змановская, В.Ю. Рыбников. СПб.: Питер, 2017. 352 с.
3. Shnayder L.B. "Deviantnoe povedenie detey i podrostkov". M:2005y.
4. Белов. В. Г. психолого-акмеологическое сопровождение подростков с делинквентным поведением: концепсия, модель, технологии: дис. д-ра. Психол. Наук: 19.00.03 / Белов Василий Георгиевич- СПб. 2010. 415с
5. Макаренко, А.С. Избранные педагогические произведения: Кн. 2: Книга для родителей / А.С. Макаренко // под ред. И.А. Каирова и Г.С. Макаренко. - М.:
6. Психология подростка. Полное руководство / Под общей редакцией А.А. Реана, - СПб.: Пайм-ЕВРОЗНАК, 2008.504 с.
7. Ктениду, М.Д. Трансляция чувства приватности в отношениях родителей сподростками: дис. ... канд. психол. наук: 19.00.01 / Ктениду Мариа Димитриос -Краснодар, 2010. 189 с.
8. . Змановская, Е.В. поведения: структурно- динамический подход: дис. ... д-ра психол. наук: 19.00.06 / Змановская Елена Валерьевна. - СПб., 2006. - 450 с.
9. Eldasheva.G.,Karimova G.Ta'lim tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua.2018.25b